

QADIMGI YUNONISTONDA TA'LIM TIZIMI

Choriyev Sanjar Hamzayevich

Termiz davlat universiteti

Jahon tarixi kafedrası o'qituvchisi.

Jovliyev Shavkat Dilmurod o'g'li

Termiz davlat universiteti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15551522>

Annotatsiya. Ushbu maqolada jahon tarixida muhim ahamiyatga ega bo'lgan, Jahon tamaddunlari ro'yxatidan o'rin olgan, o'ziga xos sivilizatsiya va madaniyatni yarata olgan qadimgi Yunoniston va Rim davlatlarida mavjud bo'lgan ta'lim tizimi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Grammatist, kifarist, Salon palestra, agella, pedonom, Ksenofont, Plutarx, efeb, pedagog, eirans, grammatika, ritorika, nundin.

Kirish

Ta'lim tizimi qadimgi davrlardan insoniyat taraqqiyotida muhim o'rin egallab kelgan.

Ta'lim hozirgi ko'rinishga kelguniga qadar uzoq yo'lni bosib o'tgan. Ta'lim tizimi dastlab qadimgi Yunonistonda shakllanadi, Rim imperiyasi orqali keng hududlarga tarqaldi. Biz bugun ushbu maqola orqali qadimgi davrda mavjud bo'lgan ta'lim tizimini Yunonistonning Afina va Sparta polislari hamda Rim misolida o'rganamiz.

Tadqiqot natijalari

Qadimgi Yunoniston yaxlit bir markazlashgan davlat sifatida faoliyat ko'rsatmagan. Bu hududda bir qancha polis (yunoncha, shahar)lar faoliyat ko'rsatgan. Asosan, Qadimgi Yunoniston ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayotida Afina va Sparta polislari muhim o'rin egallagan.

Ikkala polis bir-biriga yaqin joylashgan bo'lishiga qaramay, ikkisinin nafaqat ta'lim-tarbiya tizimi, balki, davlat boshqaruvi ham ancha farq qilgan. Ikkalasida ham davlat boshqaruvida quldorlarning o'rni va ahamiyati juda yuqori bo'lgan. Bu qatlamlar ushbu polislarni boshqarganlar. Afinada asosan, puldorlarning farzandlari o'qish imkoniyatlariga ega bo'lgan, chunki, ular davlat maktablari bo'lmagan. Puli yo'q xalqning farzandlari esa ta'lim olish imkoniga ega bo'lmaganligi uchun ota-onasining ishlariga yordam berishgan, dehqonchilik, hunarmandchilik kabi sohalar bilan shug'ullanishgan. Afina polisida bolalar tarbiyasiga alohida e'tibor berilgan.

Afina ta'limi 3 bosqichdan iborat edi. **1-bosqichda** boshlang'ich ta'lim bunda asosan, bolalar 6-7 yoshdan 14 yoshgacha tahsil olishgan. Hozirgi vaqtda yurtimizda ham bolalar 6-7 yoshdan maktabga borishadi. **2-bosqichda** esa 14 yoshdan 18 yoshgacha, **3-bosqichda** esa 18 yoshdan 20 yoshgacha tahsil olishgan¹. Uch ta'lim bosqichidan faqat uchinchi bosqich shahar-davlat tomonidan bepul taqdim etilgan. **1-bosqich** majburiy edi, unda asosan o'qish, yozish, hisob-kitob o'rgatilgan. Hisob-kitobni o'rganishda bolalar "abak" ya'ni hisob taxtasidan foydalanishgan.

¹ M.Nasaina-"Plato's Educational system in Athens-4th century".National and Kapodistrian University of Athens,School of Philosophy 2018.

Hozirgi davrda ham yosh bolalarga matematikani o'rgatish uchun hisob taxtachalaridan foydalaniladi. Maktablarda dars 6 soat davom etgan. Ushbu dastlabki ta'lim bosqichida bolalar 14 yoshgacha tahsil olishgan. Bu maktablar "grammatist" va "kifarist" deb nomlangan. 14 yoshdan keyin o'g'il bolalar "palestra" ba'zi adabiyotlarda kurash maktablari, ba'zilarida gimnastika maktablari deyiladi. Bu ta'limning **2-bosqichi** bo'lib, u butunlay ixtiyoriy va asosan, boylar uchun edi. Palestralarda asosan sport va harbiy mashqlardan tashqari, boshqa fanlar ham o'rgatilgan. Xususan, adabiyot o'tilgan. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda adabiyotning ahamiyati yuqoridir. Sport va harbiy mashqlardan asosan, yugurish, kurash, otga minish, disk va nayza uloqtirish, kabilar o'rgatilgan. Afina yoshlari voyaga yetganlaridan keyin Afina fuqarolariga aylangan, siyosiy huquqlarga ega bo'lgan. Afinalik o'smirlar vatani oldida o'smirlik qasamyodini qilishgan. Ko'p adabiyotlarda dastlabki universitetlar XIV-XV asrlarda Italiya, Fransiya kabi davlatlarda paydo bo'lganligi haqida aniq ma'lumotlar bor. Afinada oliy ma'lumot beradigan o'quv yurtlari bo'lganligi haqida manbalarda ma'lumotlar uchraydi. Bunday o'quv yurtlarida ham boy oilalar farzandlari tahsil olishgan. Shunga qaramay, Yunonistondan yetishib chiqqan ko'plab faylasuflar, olimlar boy bo'lmagan, aksincha, kambag'al bo'lishgan.

Afina strategi Solon bolalarga ta'lim va tarbiya berishda bolani o'qitish, yozish va suzishga o'rgatish kerakligini aytib o'tgan. Platon va Aristotel jismoniy tayyorgarlik aqliy tarbiyadan oldin bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Chunki, jismoniy tarbiya bilan muntazam shug'ullangan insonning qon aylanishi sistemasi me'yorida bo'ladi, uning yaxshi bilim olishida ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Afinada qizlar odatda, uyda o'qish, yozish, musiqa, raqsga tushish va uy ishlarini onalaridan o'rgangan. U davrlarda qiz bolalar ta'limiga ham uncha e'tibor berilmagan, qiz bolalar, ayollar davlat boshqaruvi va saylovlarda ham qatnashish va ovoz berish huquqiga ega bo'lishmagan. Lekin Afinadan yoki boshqa yunon polislaridan farqli ravishda Spartada xotin-qizlar tarbiyasiga alohida ahamiyat berilgan. Spartaliklar faqat sog'lom onadan sog'lom bola tug'iladi, deb hisoblaganlar. Shuning uchun qizlar Spartada uy-ro'zg'or ishlari bilan shug'ullanmagan. Bu ishlarni ilot ayollari bajarishgan².

Yunon polisleri orasida Afinaning asosiy raqobatchisi Sparta polisi bo'lgan. Spartaliklar ham Afinaliklar singari bolalariga 7 yoshgacha uylarida (ya'ni onasining qo'lida) tarbiya berganlar. 7 yoshdan boshlab "agella" deb ataluvchi alohida davlat tomonidan tashkil etilgan maktablarga joylashtirgan, 18-20 yoshgacha Sparta bolalari agellada ta'lim olardi. Bunday maktablarda tartib-intizom juda qattiq bo'lgan. O'g'il bolalar yostiqsiz qattiq bo'yra ustida yotib, ustlariga yengilgina ko'rpa yopib uxlaganlar. Ularning bittagina kiyadigan kiyimi plash (gimatiy)bo'lgan. Ular qishin-yozin boshyalang va yalangoyoq yurishgan³. Agellalarda tarbiya ishlari bilan "pedonom"lar shug'ullanishgan, ular davlat tomonidan tayinlangan. Spartalik bolalar o'qish va yozishni o'rganishgan, ammo, afinaliklar singari ilmiy bilimlar bilan shug'ullanishmagan, chunki, spartalik bolalar hayotga harbiy intizom bilan o'rgatilgan. Sparta davlati harbiy davlat bo'lib, uning hududida aytarlik san'at, haykaltaroshlik durdonalari ham

² Yu.S.Kurushkol-"Qadimgi dunyo tarixi".II qism.(R.Abdurahmonov va A.O'rozayev rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilgan).Toshkent.O'qituvchi 1975.

³ Yu.S.Kurushkol-"Qadimgi dunyo tarixi".II qism.(R.Abdurahmonov va A.O'rozayev rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilgan).Toshkent.O'qituvchi 1975.

bo'lmagan, hamma uylar oddiy va bir-biriga o'xshatib qurilgan. Ularda ulg'aygan har bir o'spirin asosan, askar bo'lib yetishgan. Spartada bolalar 18-20 yoshga yetgandan keyin maxsus "efebalar" guruhlariga o'tkazilgan va harbiy xizmatni o'taganlar. Efeblardagi o'spirinlarga yunon afsonalari, shu bilan birga ota-bobolari ko'rsatgan jasoratlar, qahramonlar haqida suhbatlar uyushtirilar edi. Sparta ta'lim tizimida she'riyatning ham alohida o'rni bor. Spartaning sevimli shoiri Tirtey (Tyrtaeus) bo'lib, uning she'rlari jasur, fidoyi askarlarni tarbiyalash uchun ideal nasihat va daldani o'zida mujassam etgan: "Yigitlar kelinglar, bir-biringizning yoningizda turib, jang qilinglar, hayotga muhabbat qo'ymanglar". Spartaning ta'lim tizimi boshqa yunon polislaridan yuqori baholangan. Bu haqida Ksenofont va Plutarx shunday deydi: "Spartada ta'lim bolaning tug'ilmasidan avval boshlangan". Ksenofont Sparta ta'limi yuqori ekanligini aytib: "Spartadan tashqarida yunonlarning ta'limga bo'lgan e'tibori nisbatan past hurmatga sazovor bo'lganlarga topshirilgan shaxsiy ishdir"⁴. Ehtimol, bunda Afina ta'limi nazarda tutilgan. Ma'lumki, ota-ona o'z farzandiga qulni pedagog sifatida tayinlaydi. (pedagog-yunonchadan, bolani yo'lda kuzatib boruvchi ma'nosini anglatadi). Pedagoglar bolani o'qishga olib borganlar va bolalarning xatti-harakatlarini kuzatgan. Bundan farqli o'laroq, Spartada fuqarolarning ta'limi shunchalik yuqori baholanganki, hukumat barcha yoshlarning ta'limini nazorat qilish uchun bir kishini tayinlagan.

Nazoratchi "pedonom" eng yuqori ijtimoiy darajaga ega bo'lganlar orasidan tayinlangan. Plutarx ta'lim rejimidagi qo'mondonlik iyerarxiyasini quyidagicha ta'riflaydi: "Shaharning eng oliyjanob va eng zo'r kishilaridan biri pedonom yoki o'g'il bolalar nazoratchisi etib tayinlangan va uning rahbarligi ostida o'g'il bolalar otryadlari "eirens" deb ataladigan eng ehtiyotkor va jangovar qo'mondonlikka birlashganlar". Spartada ta'limining maqsadi, Plutarxning fikricha, "Sparta yoshlari qo'mondonlariga qarshiliksiz itoat etishlari, qiyinchiliklarga bardosh berishlari va jangda g'alaba qozonishlari lozim". Spartada qizlar ta'limiga ham alohida e'tibor berilgan. Ular asosan, uy ishlari, raqsga tushish shu bilan birga harbiy va jismoniy tarbiya malakalariga ega bo'lgan.

Chunki, urush paytlarida yoki qo'zg'olonlar paytida erkaklar yo'q vaqtlarda qizlar, ayollar shaharni, uyni mudofaa etishgan, shahardagi qullarni itoatda ushlab turishgan.

Qadimgi Yunonistonning ikki asosiy shahar-davlatlari yuqorida aytib o'tganimizdek, ta'lim tizimida ikki xil yondashuv bo'yicha borishdi. Afinaliklar butun yunon dunyosidagi sofistlarni o'zlariga jalb qilganlar. Afinaliklarning ilmga, ta'limga qiziqishi ko'plab sohalarda namoyon bo'ladi. Bu yerda falsafa, tarix, adabiyot, she'riyat, teatr, arxitektura, muhandislik ilmlarida ko'plab katta yutuqlarga erishgan.

Bu yutuqlarning bari ta'lim mahsulidir. Lekin nega Spartaliklar o'z farzandlarini afinaliklar kabi ilmiy sohaga yo'naltirmadilar, bunga sabablardan biri sifatida ular Afina ta'limi Sparta ta'lim maqsadiga zarar yetkazadi deb o'ylashdi va ular uchun ta'lim faqat harbiy intizom, jangovarlikdangina iborat bo'lgan.

XULOSA

Afina va Sparta ta'lim tizimining hozirgi davrdagi ta'lim tizimi bilan o'xshash tomonlari ko'p. Afina va Sparta ta'lim tizimi hozirgi ta'lim tizimining shakllanishida muhim o'rin egallaydi,

⁴ A.I.Mintz-"Sparta,Athens and the Surprising Roots of Common Schooling".University of Tulsa 2018.

yaqin o'tmishda va qadimgi yunon yoki rim tarbiya va ta'lim tizimining ba'zi jihatlaridan keyingi asrlar davomida foydalanilgan.

Masalan, Spartaning ta'lim-tarbiya berish ko'nikmalaridan keyingi yillarda Fransiya va Rossiya harbiy o'quv yurtlarida ham o'rganilgan. Qadimgi Sparta va Afinada ham o'quvchilardan bilim olish qat'iy talab etilgan. Bu talab hozir ham butun dunyoda asosiy o'rinni egallaydi.

Chunki, ilm taraqqiyot kalitidir. Yomon tomoni shundaki, yunonlarning ham, rimliklarning ham ta'lim tizimida ayollarning ta'lim olishi cheklanganligi bu sivilizatsiyalarning maorifidagi kamchiligi hisoblanadi. Lekin biz qancha gapirsak ham muhokama etsak ham bu tarix, tarixni o'zgartirib bo'lmaydi. O'sha davr mafkurasi shunday bo'lgan chunki. Biz esa tarixni o'rganish orqali o'tmishda qilingan xatolardan saboq olib, kelgusida bu xatolarni takrorlamasligimiz lozim.

Biroq, davrlar o'tgani sayin sekinlik bilan ta'lim tizimi ham rivojlanib bordi va kamchiliklarga barham berilib, hozirgi zamondagi qulay ta'lim tizimi yaratildi. Qadimgi Yunoniston ta'lim tizimi Yevropa ta'lim tizimining muqaddimasi hisoblanadi.

REFERENCES

1. A.I.Mintz-"Sparta,Athens and the Surprising Roots of Common Schooling".University of Tulsa 2018.
2. E.Kenjayeov-"Qadimgi dunyo tarixi".Namangan 2007.
3. Куманетский.К-"История культуры Древней Гречесии и Рима"-М.,1990
4. M.Joyal, MCDougall,J.C.Yardley-"Greek and Roman education".New York,London 2009.
5. M.Nasaina-"Plato's Educational system in Athens-4th century".National and Kapodistrian University of Athens,School of Philosophy 2018.
6. R.R.Rajabov-"Qadimgi dunyo tarixi"(Qadimgi Sharq,Yunoniston va Rim tarixi).Toshkent 2019.
7. S.J.Aubrey Gwynn-"Roman education".Oxford at the Clarendon Press 1926.
8. Yu.S.Kurushkol-"Qadimgi dunyo tarixi".II qism.(R.Abdurahmonov va A.O'rozayev rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilgan).Toshkent.O'qituvchi 1975.
9. Choriyev, SH (2024). SOVET HUKIMATINING ADABIYOT VA SAN'ATDA PARTIYA TARG 'IBOTI. Sharq uyg'onishi: innovatsion, ta'lim, tabiiy va ijtimoiy fanlar , 4 (5), 281-284.
10. Choriyev, SH (2023). SURXONDARYODA IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYINGI YILLARDA MADANIY HAYOT. Zamonaviy fan va tadqiqotlar , 2 (9), 283-286.
11. Чориев, С. (2023). Сурхон воҳасида мискарлик ва заргарлик санъати ҳақида айрим мулоҳазалар. История и культура центральной Азии, 1(1), 339-341.
12. Habibullo o'g'li, R. M. (2023). SURXON VOHASI TOQCHI QAVMINING AN'ANAVIY TURMUSH TARZI.
13. To'Rayev, S. G. O. G. L., & Raxmonov, M. X. O. G. L. (2022). BX KARMISHEVA TADQIQOTLARIDA SURXON VOHASI YUZ URUG'LARINING ETNIK TAVSIFI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 43-51.

14. Рахмонов, М. (2023). Surxon vohasi toqchi qavmlari hududiy joylashuvining ilmiy tahlili. *История и культура центральной Азии*, 1(1), 341-344.
15. Rahmonov, M. (2023). TRADITIONAL LIFESTYLE OF THE TOKCHI PEOPLE OF SURKHAN OASIS. *Modern Science and Research*, 2(4), 720-722